XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust VII-15-105-9-125-K/25 Mirzaobod tumani

Mirzaobod tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq hamda Mirzaobod tumani hokimining 2025-yil 12-iyundagi 125-9-125-F/25-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 27-iyuldagi 01-TYB-/280-son yig‘ilish bayoniga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi mutaxassislari tomonidan Mirzaobod tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalariga ko‘ra tumanning jami maydoni 67228 gektarni, tumanning jami perimetri 465447 metr ekanligi aniqlandi.

Shundan: shaharcha va qishloqlar kesimida,

Navro‘z shaharchasining jami maydoni 752 gektarni, perimetri 22515 metr ekanligi;

Oqoltin shaharchasining jami maydoni 310 gektarni, perimetri 13972 metr ekanligi;

Navbahor qishlog‘ining jami maydoni 7086 gektarni, perimetri 34697 metr ekanligi;

Bahoriston qishlog‘ining jami maydoni 7748 gektarni, perimetri 35542 metr ekanligi;

Yo‘ldoshobod qishlog‘ining jami maydoni 6792 gektarni, perimetri 47372 metr ekanligi;

Nurafshon qishlog‘ining jami maydoni 4520 gektarni, perimetri 30727 metr ekanligi;

Mehnatobod qishlog‘ining jami maydoni 6612 gektarni, perimetri 41530 metr ekanligi;

Birlashgan qishlog‘ining jami maydoni 6337 gektarni, perimetri 45044 metr ekanligi;

Oqoltin qishlog‘ining jami maydoni 2824 gektarni, perimetri 29241 metr ekanligi;

Mirzacho‘l qishlog‘ining jami maydoni 18918 gektarni, perimetri 98592 metr ekanligi;

Toshkent qishlog‘ining jami maydoni 5329 gektarni, perimetri 66215 metr ekanligi;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi haqida”gi 2020-yil 28-avgustdagi O‘RQ-635-sonli Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq ham Mirzaobod tumani hokimining 2025-yil 12-iyundagi 125-9-125-F/25-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 27-iyuldagi 01-TYB-/280-son yig‘ilish bayoniga hamda “Mahaliy davlat hokimiyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq ham Mirzaobod tumani hokimining 2025-yil 12-iyundagi 125-9-125-F/25-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 27-iyuldagi 01-TYB-/280-son yig‘ilish bayoni tasdiqlansin.

2. Mirzaobod tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari shaharcha va qishloqlarning chegaralari perimetri va maydonlari haqidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda tuman hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralari kartografik chizmasi (sxema) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining qarori mahalliy gazeta ham hokimlikning internetdagi veb-saytida joriy qilinsin.

4. Ushbu qarorni tasdiqlash Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi, ekologiya va qurilish, kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (I.Norkuziyev) hamda tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Z.Abduvoxidov)ga yuklatilsin.

Kengash raisi UMAROV ABDURAXIM ABDULXAMIDOVICH

Xalq deputatlari Mirzaobod tumani
Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-15-105-9-125-K/25 -son qaroriga
1-ilova


Mirzaobod tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha shaharcha va qishloqlarning chegaralari perimetri va maydonlari haqida

MA’LUMOT

№	Ma’muriy-hududiy birliklar nomi	Maydoni (ga)	Chegara uzunligi (metr)
1.	Navro‘z shaharchasi	752	22515
2.	Oqoltin shaharchasi	310	13972
3.	Navbahor qishlog‘i	7086	34697
4.	Bahoriston qishlog‘i	7748	35542
5.	Yo‘ldoshobod qishlog‘i	6792	47372
6.	Nurafshon qishlog‘i	4520	30727
7.	Mehnatobod qishlog‘i	6612	41530
8.	Birlashgan qishlog‘i	6337	45044
9.	Oqoltin qishlog‘i	2824	29241
10.	Mirzacho‘l qishlog‘i	18918	98592
11.	Toshkent qishlog‘i	5329	66215
	Jami	**67228**	**465447**

Xalq deputatlari Mirzaobod tumani
Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-15-105-9-125-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani
shaharcha va qishloqlarning chegaralarini
belgilash ishlari bo‘yicha
SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi
A dan B gacha Qozog‘iston Respublikasi yerlari
B dan D gacha Sirdaryo tumani yerlari
D dan E gacha Sayxunobod tumani yerlari
E dan F gacha Guliston tumani yerlari
F dan G gacha Guliston shahri yerlari
G dan H gacha Boyovut tumani yerlari

Shartli belgilar
Respublika chegarasi
Tuman chegarasi